

O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARI TURLARI VA ETIMOLOGIYASI

Soatova Nilufar Raxmat qizi

Termiz Davlat Universiteti

Filologiya va o‘zbek tili fakulteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek milliy liboslarining boshqa-boshqa viloyatlardagi turlarini va etimologiyasini, Surxon ayollarining milliyligini aks ettirib turuvchi qadimgi taqinchoqlari haqida va milliy bosh kiyimimiz bo‘lgan do‘ppining turli nomlari haqida qiziq ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: do‘ppi, atlas, zar chopon, sinsila, taxya, etimologik lug‘at, shevalar.

Libos-millatning madaniyati belgisi va ma’naviyat timsoli, ayollarning ko‘rki, milliylikni ko‘rsatib turuvchi ko‘zgidir. Shu jumladan, O‘zbek milliy liboslariga to‘xtaladigan bo‘lsak bu - o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgacha foydalanib kelinayotgan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlar. Navro‘z, hosil bayrami, o‘zbekona to‘y va boshqa ko‘plab milliy bayramlarimiz, urf –odatlarimizni milliy kiyimlarimizsiz tasavvur qilish qiyin. Yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko‘pchiligi O‘zbek milliy liboslariga katta baxo berishyabdi.

Do‘ppi-O‘zbek milliy kiyimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek xalqining hayoti va an‘analariga chuqur kirib borgan. Do‘ppi (turkcha tepa so‘zidan)nafaqat o‘zbeklar, balki Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy bosh kiyimi. O‘zbek do‘ppilarining eng ko‘p tarqalgan shakllari ozgina konussimon kabi to‘rt qirrali do‘ppilardir. Yurtimizning ko‘pgina tumanlarida chust do‘ppilari ko‘p uchraydi. Chust do‘ppilarining eng tarqalgan turi qora matodagi to‘rt dona qalampir shaklidagi oq naqsh bilan tikilgan bo‘lib ,pasti qator joylashgan gumbazchalar bilan o‘ralgan. Farg‘ona vodiysi do‘ppilarning boshqa turlari –“Sandali”, “Akka ikki so‘m”,

“Chimboy”, “Surkachekma” va boshqa lar naqshlarining soddaligi bilan ajralib turadi. Samarqand do‘ppilari “piltado‘zlik” uslubiyatida bajariladigan. Shuningdek urgutcha “qalpoq”, Buxoroning zar tikilgan do‘ppilari, shahrisabzcha “gilam do‘ppi”, Kitol va Shahrisabz do‘ppilari “sanama” va “chizma”, “taq‘ya”, “tayxa”, “chumakli”, “kush”-Xorazmning erkaklar va ayollar do‘ppilaridir.

Atlas-(bir tomoni yaltiroq, guldor ,kudunglangan mahalliy ipak gazlama) O‘zbekistonda keng tarqalgan ayollar libosidir ,bu libos ipakdan tayyorlanadi.O‘zbekistonda ipakchilik rivojlanganligi uchun atlas deyarli hamma viloyatlarda kiyiladi .Atlas qadimiy va milliy liboslardan biridir.O‘zbekistonda eng mashhur atlas Marg‘ilon shahrida to‘qiladi .Hozirgi kunda ham atlaslarimiz milliy bayramlarimiz va milliy festivallarimizda namoyish etib kelinmoqda.

Zar chopon-o‘zbek ayollarini qishda sovuqdan ,yozda issiqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi .Chopon o‘zbek xalqining qadimiy liboslaridan biridir.

Ayollarning kiyimlarini zargarlik buyumlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.Surxondaryoda zargarlik buyumlari xuddi kiyimlar kabi ushbu mintaqaning etnik turmush tarziga xos bo‘lgan ,alohida ajralib turadigan xususiyatlarga ega bo‘lgan .Kumushdan ishlangan peshona bezaklar “sinsila”(sil-sila)deb atalgan.Ayollarning ziraklari turli tuman bo‘lgan .Burunga taqiladiganlari “letuva” va “natti” deb atalgan.Xorazm ayollar liboslari –o‘zining udumlari ,milliy o‘ziga xosligi matolarining ranglari ,qolaversa tikilish uslublari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi .Umumiy majmuasiga quyidagilar kiradi

- tanaga ko‘ylak (guynak)kiyilgan va lozim(ishton).
- ko‘ylak ustidan xalat (elak)kiyilgan .Unga yupqa paxta quyilib tikilgan.
- paranja,chachvon
- taxya,ro‘mol,lachak yoki bosh o‘rov ,xar xil taqinchoqlar.

Yuqorida aytib o‘tilganidek O‘zbek milly liboslari deganda ko‘z oldimizga do‘ppi,atlas ,zar chopon,belbog‘,yaxtak kabilarni aytishimiz mumkin.Milliy

liboslarimiz jahonda ham o‘z o‘rniga egadir.O‘zbek milliy libosi va madaniyati o‘zgacha jozibadordir.

REFERENCES

- 1.D.Raxmatullayeva,U.Xodjayeva,F.Ataxanova “Libos tarixi” 246.bet
2. “O‘zbek milliy bosh kiyimlari”.XIX-XX ASRLAR
- 3.Sh.Raxmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”
4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”.5jild .Toshkent 2020

